

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Amaliy ish

Mavzu:

**Saljuqiylar davlatining tashkil topishi
va istilochilik yurishlari**

Tayyorladi: 2-kurs turk-ingliz guruhi
talabasi Begmatova Dilnoza

Toshkent-2010

Saljuqiylar davlatining tashkil topishi va istilochilik yurishlari

Reja:

Kirish

1. Saljuqiylar harakati
2. Ko'chmanchi saljuqiylar

Asosiy qism

3. Saljuqiy davlatining tashkil topishi
4. Saljuqiylarning istilochilik yurishlari
5. Onado'li Saljuqiylar davlati

Xulosa

Tayanch atamalar:

Saljuqiylar harakati, bosh ruhoniylar, mahalliy ahamiyat ega bo'lgan kichik knyazliklar, diniy hokimiyat, udei, turk dinastiyasi, boshboshdoqlik, botiniylar, o'g'uzlar isyoni.

XI asrning birinchi yarmidagi saljuqiylar harakati, garchi qisman Movarounnahr territoriyasida kelib chiqqan bo'lsa ham, ammo undan

uzoq joylarda yuz berdi. Bu harakat bilan bog'liq voqealar Old va O'rta Osiyo sharqida katta aks sadaoga ega bo'ldi.

Saljuqiylar harakatiga Saljuqning nabiralari aka-uka To'g'rulbek va Chag'ribek Davud hamda ularning amakisi Musa Yabg'u boshchilik qilar edi. Ular kinik nomli qadimgi turkman qabilasidan edilar. Aka-uka saljuqiylar ko'chmanchi - turkman qabilalari ustidan boshchilik qilgan edilar. Bu qabilalar tarkibiga boshqa turkman urug'-qabila urug' va qabilalar birlashmalari bilan ham qarindoshlik munosabatida bo'lgan

birqancha urug' va qabilalar kirgan bo'lsa kerak. Dastlab saljuqiylar quyi Sirdaryodagi Jand degan

joyda ko'chib yurar edilar, ammo Shohmalik nomli hokim bilan urushib qolganlari tufayli Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'iga, somoniylar tomonidan



ularning ko'chib yurishi uchun berilgan Nur(Nurota)ga ketishga majbur bo'lgan edilar. Somoniylar Saljuqiylar bilan totuv yashar edilar, bu totuvlik somoniylarning qoraxoniylarga qarshi olib borgan kurashlarida turkmanlarning somoniylarga bergan yordamiga asoslangan bo'lib, ammo bu yordamga doim ishonish qiyin edi.

XI asning birinchi yarmida turkman - saljuqiylarning ahvoli juda og'irlashdi. Gap shundaki, Movaraunnahrga, shu jumladan Zarafshon vodiysiga qoraxoniylar bilan birga ko'pchilik chigil, qarluq, yag'mo va boshqa turk qabilalari ham keldi. Ularning hammasiga ko'chib yurish uchun joy kerak edi. Shu jumladan, turkmanlar o'rnashib olgan Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'idagi Nurdan to Samarqandgacha bo'lgan qismi ham kerak edi.

Movoraunnahrda Ilekxon Alitagin xo'yajinlik qilib turgan davlarda (1034 yilda o'lgan) saljuqiylarga unchalik tegmas edilar; uning vafotidan keyin Alitaginning o'g'illari yosh bo'lgani uchun butun ishni o'z qo'lga olgan Tunush davrida ularning ahvoli juda og'irlashdi. Nihoyat, sharoit ularni Zarafshon vodiysini tashlab ketishga majbur qildi. Xorazmshoh Xorun 1034 yilda ularga raboti Mashoi, Sho'raxona va Goviyhar rayonlaridadan yer ajratib berdi, ammo Jand hokimi ularga hujum qildi va 8 ming kishini o'ldirdi. Saljuqiylarning boshliqlari yuqorida aytib o'tilganidek To'g'rulbek, Chag'ribek Davud va Musa

Yabg'u bu yerdan ketishga va Mahmud G'aznaviyning o'g'li Ma'suddin joy so'rashga ahd qildilar. (Ma'sud 1030 yildan 1041 yilgacha podshohlik qilgan edi).

Saljuqiylar o'zlariga Saraxs, Marv, Abiverd, Nes va Farovi rayonlarida ko'chib yurishlariga ruxsat berilishini so'rab, Xurosonning G'aznaviy jomiga elchilar yubordilar. Bu joylar ko'chib yurish uchun juda qulay edi, ulardan ba'zilari, masalan, Saraxs va Abiverd manzillarida bahorikor yerlar ko'p bo'lib, ko'chmanchilar tomonidan juda qadrlanar edi.

1025 yilda Mahmud davrida turkmanlar bilan bo'lib o'tgan hamma voqealar shunday kuchli taassurot qildirdiki, Xuroson noibiga To'g'rulbekning vakillari bilan g'arazli munozaralar olib borishga to'g'ri keldi. Ammo turkmanlar juda matonatli edilar va nihoyat, to'liq bo'lmasa ham, o'z maqsadlariga erishdilar. 1035 yilda Nishopurda imzolangan shartnomaga ko'ra, ular Nes, Farovi va Dehiston deb nomlangan joylarni oldilar, ammo bus afar ham, bundan o'n yil ilgari bo'lgani kabi, dehqonchilik qiladigan aholi bilan tinch munosabatda bo'lolmadilar.



Oradan bir necha oy o'tar o'tmas sharoit yana og'irlashdi. Saljuqiy boshliqlari o'troq aholi bilan tinch munosabat o'rnatishni faqat og'izdagina bajarar edilar. Amalda esa ular g'aznaviylar hukumatidan yangi yerlar, ayniqsa Marv va Saraxs rayonlaridagi yerlarni qunt bilan talab qilishni davom ettirdilar. Ma'sur uchun qurol kuchi ishlatishdan boshqa chora qolmadi. Ammo sharoit g'aznaviylar uchun noqulay bo'lib chiqdi. Xurosonda ularning ishonchli tayanchi topilmadi, chunki g'aznaviylarham ularning noiblari ham bu katta va boy mamlakatda obro'ga ega emas edilar. G'aznaviylarning so'nggi noibi bo'lgan Abulfozil Suriyki Xuroson aholisi ochiqdan-ochiq yomon ko'rar edilar. Chunki u do'q va po'pisa qilar, pora olar va o'z amalidan foydalanib xiyonat qilar edi.

Xuroson aholisi g'aznaviylar qo'shinining aholi hisobiga yashashidan va ularning qiladigan zo'rligidan qattiq azob chekar edi. Bu voqealarni ancha to'liq tasvirlagan va ularning ko'pida o'zi ishtirok

etgan XI asr fors tarixchisi Bayhokiy Xurosonga turkmanlar kelgan paytda Xuroson to'liq anarxiyani o'z boshidan kechirar edi, deb hikoya qiladi.

Shunday sharoitda g'aznaviylarning saljuqiylarga qarshi olib borgan kurashi sulton Ma'sud uchun foydasiz bo'lib chiqdi. Uning turkmanlarga qarshi yuborgan qo'shini Saraks yonida mag'lubiyatga uchradi, natijada turkmanlar uchun Xurosonning bosh shahari - Nishopurga yo'l ochildi. 1038 yilda To'g'rulbek 3 ming kishidan iborat qo'shini bilan hechqanday qarshilikka uchramay Nishopurni egalladi. Shuni e'tiborga sazovorki, Nishopurning bosh ruhoniylari va savdogarlari shaharni, so'zsiz topshirish tarafdori edilar.

Ammo Nishopurni bosib olish bilan Xurosonning qismati hal bo'lmagan edi. Kurash davom etdi. Bir vaqt harbiy baxt g'aznaviylar tomoniga boqqanday bo'ldi. Masalan, Ma'sur 1038 yilning o'zida Saraks yonida katta g'alaba qozondi. Ammo g'aznaviylar podshosi bu g'alabaning ahamiyatiga yuqori baho berdi va o'z qo'shinlarini harbiy harakat maydonidan olib ketib, saljuqiylarning mustahkamlanishiga va yangi kuchlar to'plashga imkon tug'dirdi.

1040 yilda Saraks va Marv orasidagi Dandonakan yonida so'nggi hal qiluvchi jang bo'ldi. Suvsiz sahrodan o'tib tashnalik va charchashdan kuchsizlangan, intizomdan chiqib ketgan g'aznaviylarning katta

armiyasi butunlay tor-mor etildi. Ma'sur G'aznaviylarning o'zi esa kichik bir otryad bilan qochil qutuldi. 1040 yildagi jang g'aznaviylar davlatini mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan kichik knyazlikka aylantirib, ularning qudratiga chek qo'ydi. G'aznaviylar davlatinign vayronasi ustida yangi buyuk saljuqiylar davlati tashkil topdi. Bu davlatning tarixiy hayoti O'rta Osiyodan tashqarida bo'lsa-da, lekin u bilan chambarchas bog'liq edi. G'aznaviylardan tortib olingan yerlar saljuqiylar xonadonining ayrim a'zolariga hadya sifatida bo'lib berildi: To'g'rulbekka Eronning shimoliy va shimoliy-g'arbiy viloyatlarining katta qismi, Chag'ribek Davudga Marv va Xurosonning katta qismi, Musa Yabg'uga, Tus, Hirot va Seyiston viloyatlari tegi.

Saljuqiylar davlatining boshlig'i To'g'rulbek (1038-1063 yillar) bo'lib qoldi. U hujumni davom ettirib Iroq Ajami (Fors Iroqi), Ozarbayjon, Kurdiston va Ko'histonni o'ziga bo'ysundirdi. 1055 yilda To'g'rulbek qo'shinlari bilan Bag'dodga kirib keldi va o'z nomini hutbaga qo'shib o'qitishga xalifani ko'ndirdi. Diniy hokimiyat abbosiylar xalifasiga, dunyoviy hokimiyat sulton unvoni bilan To'g'rulbekka o'tdi. To'g'rulbek yangi davlatning poytaxti etib Rey shahrini tanladi. Uning diqqati butunlay g'arbga qaratilgan edi. O'zining shaxsiy udei uni uncha ko'p qiziqtirmas edi. U o'zidan kuchli bo'lgan qoraxoniylar bilan To'g'rulbek faqat tinch munosabatda bo'lish

yo'lini qidirar edi. Ammo bu tinchlik uncha mustahkam bo'lmagan va uzoq davom etmaydigan tinchlik edi. Har ikkala turk dinastiyalari to'qnashishga olib kelgan janjalli masalalar kelib chiqdi.

Alp Arslonxonning o'rniga saljuqiylar taxtiga chiqqan sulton Malikshoh 1055 yilda tug'ilgan edi. Otasi o'z yurishlarida uni doimo oldida olib yuragn va shu tufayli uning ko'zlari deyarli janglarda qotgan edi. Shuningdek, Malikshoh otasining vaziri Nizommulk yonida davlat ishlarini yaxshi o'rgangan va yaxshi ta'lim olgan edi. Uning davrida saljuqiylar imperiyasi siyosiy jihatdan, davlatni boshqarish va harbiy nuqtai nazardan nihoyatda taraqqiy etdi, davlatning chegaralari hech ko'rilmagan darajaga kengaydi.

Eng avvalo Malikshoh sultonlik da'vosi bilan chiqqan amakisi, Kirmon hukmdori Kovrutni yengdi. So'ng sharqiy chegaralari tajovuz qilgan qoraxoniylar ustiga yurish qilib, ularni bo'ysundirdi. G'aznaviylar bilan sulh tuzilgandan so'ng, otasining o'limi tufayli chala qolgan ishini tamomlash uchun orqaga qaytdi va Misrga qadar yaqin va o'rta sharqni qo'l ostida birlashtirish uchun yurish boshlandi.

Malikshoh beklarning bir qismini Onado'lini istilo qilish uchun jo'natdi, boshqalarni bo'lsa Suriyaga yubordi. Onado'lga yuborilgan Qutoliddin o'g'li Sulaymonbek qisqa vaqt ichida Uskudarga qadar yetib borishi kerak edi. Suriyaga jo'natilgan Otsizbek esa shia fotimiy xalifasi

qo'l ostidagi sharqiy O'rtadengiz mintaqasini ulardan ozod etib, Misr hududlariga yetib bordi. Sulton Otsizdan keyin Suriya hokimligiga ukasi Malik Tutumni tayinladi, o'zi esa Suriya va Iroqdan sharqqa yurdi. Sulton g'arbiy qoraxoniylar xonligini istilo qilgach, bu davlatni saljuqiylarga tobe qildi. Sharqiy Qoraxoniylarga yurish qilishga otlangan paytda Qoshg'ar hukmdori Xarun Bug'raxon kelib, unga tobe bo'lganini aytdi va o'z taxtida qoldi. Malikshoh sharqda butun masalalarni hal qilib bo'lgach, janubga, Hijozga askar yuborib, Arabiston yarim orolini saljuqiylar hokimyatiga qo'shib oldi. Shu tariqa saljuqiylar sultonligi juda ham katta maydonga ega bo'ldi.

Malikshoh va uning vaziri Nizommulk o'sha paytlari islom dunyosiga qutqu slogan, boshboshdoqliklarga qarshi juda qattiq kurash olib bordilar. Ular bir tomondan Nizomiya madrasasini ochib, u yerlarda sunniy islom e'tiqodini o'rgatishar, boshqa tomondan fisq=fasodchi botiniylarni ushlab, jazo berishar edi. Alamut qa'lasini botiniylarning qarorgohiga aylantirgan Hasan Abbos ismli bir eronlik qoradori vositasida o'ziga tamoman bog'lab olgan fidoyilar yordamida Malikshoh va uning vaziri Nizommulkka qarshi suiqasd uyushtirdi va 1092 yilda har ikkisini o'ldirtirdi. Malikshohning o'limidan keyin taxt o'g'li Berkyuruq chiqdi va saljuqiylar sultoni bo'ldi. 1105 yilda Berkyayur vafot etgach, taxtga uning ukasi Muhammad Topar chiqdi. Topar xuddi otasi va akasi

kabi juda munosib davlat boshlig'i edi, ammo uu 1118 yilda juda erta vafot etdi. Bundan so'ng saljuqiylar taxtiga uzoq vaqt saltanat boshqargan so'nggi Sulton Sanjar o'tirdi.

Sulton Sanjar Malikshohning o'g'illaridan biriedi. U Xurosonda hokimlik qilib, davlat ishlarini yuritishni puxta egalladi. Uning zamonida saljuqiylar sultonligi nihoyatda kengayib, kuch-qudratli davlat holiga keldi. Sulton Sanjar huddi ertaklardagi qahramonlarni eslatar edi. G'aznaviylar va g'uriylar saljuqiylar sultonligini qo'shib olinishi bilan davlat hududini Hindistonga qadar kengaytirdi.

Sanjarni shardan kelgan qoraxoniylarga yengilib, Turkistonni yo'qotishi, uning saltanatiga berilgan ilk zarba bo'ldi. Keyinchalik u o'ziga tobe bo'lgan ko'chmanchi o'g'uzlar isyonini bostira olmadi. O'g'uzlar Sanjarni asir oldilar, davlatning eng go'zal, eng boy shaharlarini talon-taroj qilib yoqib yubordilar. Sulton uzoq vaqtdan so'ng asirlikdan qutildi, ammo ko'p yashamadi. 1157 yilda vafot edi. U paytlarda Onado'li garchi sultonga tobe bo'lsada, alohida mustaqil davlat edi. Iroq saljuqiylari ham davlatga ega chiqa olmagach, saljuqiylarning sharqdagi yerlari xorazmshohlar qo'lga o'tdi. davlatning eski viloyatlaridagi turk hokimiyati beklklar hoida davom etdi.

Iroq, Suriya va Kirmonda saljuqiylar oilasidan chiqqan beklar, Ozarbayjon, Musul, Xalab va Sheroz Otabeklar hukm surdilar.

Malazgirtida qozonilgan g'alaba turklarga Onado'li darvozalarini keng ochib berdi. Lekin, bundan ancha oldin turk qismlari Onado'lida bemaol yuradigan darajaga yetgan edi. Hatto Diognez yuz ming askar bilan Malazgirtga yurish qila olmagan. Chunki mamlakatning turli tomonlarida turk qismlari erkin harakat qilar va ularni hech kim qo'lga tushira olmas edi.

Diognes bilan tuzilgan shartnoma Vizantiyaning yangi imperatori tomonidan tan olinmaganligi sababli Sulton alp Arson Qutolmish o'g'li Sulaymonshohni Onado'lini fath etishga jo'natdi. Sulaymonshohning qo'l ostida Ortuq, Ofshin, Po'rsuq, Donishmadn, Saltuq kabi juda mashxur qo'mondonlar bor edi. Ular qisqa vatq ichida Sivosning u tarafiga o'tib, o'zlari tomon kelayotgan Vizantiya qo'shinini Qaysari yaqinida yengdilar va qo'mondonni asir oldilar. Izmit yaqinida ular Vizantiyaning boshqa qo'shiniga duch keldilar. Bu qo'shin Ortuqbek tum-taraqay qilib yubordi. Vizantiya janub tomonga yurish qilgan Sulaymonshohni to'xtarish uchun katta qo'shin yubordi. Bu qo'shinni Qutolmish o'g'li 1074 yilda bo'lib o'tgan jangda tor-mor keltirdi. Bu janglardan keyin Vizantiyaning turklarga qarshi qo'shin yuborishi amrimahol bo'lib qoldi. Qutolmish o'gli beklari bundan foydalanib,



Onado'li shaharlarini birin-ketin qo'lga kirita boshladilar. 1084 yilga kelib, Marmara dengizgacha bo'lgan Onado'li yerlari turklarining qo'lga o'tdi/

1077 yilda buyuk Sulton Malikshosh Qutolmish o'g'li Sulaymonga farmon jo'natib, uni "Onado'li hukmdori" deb e'lon qildi. Abbosiy halifa ham Qutolmish o'g'lini hukmdor sifatida tan oldi.

U zamonlarda Onado'li qaynab turgan qozoga o'xshar edi. Turkmanlar qavmlari bilan ko'chib kelib, bu yerlarni vatan tutar va O'rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy turmush tartibini ayni shaklda davom ettirishga harakat qilar edi. Yangi kelganlar zafar qozongan millat bo'lganliklari uchun o'zlarini boshqalardan ustun qo'yar va e'tiqod borasida bu yerliklardan hech qolishmas edilar.

Buyuk saljuqiylar sultonligida islomiyatning hanafiy mazhabi hukmron bo'lib, davlat arboblari ayni shu mazhabda ta'lim-tarbiya olar edilar. Binobarin, yuqori tabaqa orasida e'tiqod, ibodat birligi ta'minlangan edi. Onado'lga kelgan va ko'pchiligi ko'chmanchi bo'lgan o'g'uzlarda musulmochilik ularning eski dinlari bilan qorishib ketgan holda edi. Buning ustiga ular qabila holda yashaganliklari sababli oralarida bu borada birlik juda qiyin edi. Buning ustiga ular qabila

holiday yashaganliklari sababli oralarida bu borada birlik bo'lishi juda ham og'ir edi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, turk xalqi bu yerga kelgan turklar bilan shu yerlik xalqlarning chet chatishuvidan vujudga kelgan emas, ya'ni duragay xalq emas. Yuqorida aytganimizday, turklar Onado'liga kelganida bu yerda miloddan oldin yashagan, sumerlar kabi qavmlar yo'q edi, rumlar, armanlar, sureniylar bor edi. Bularning juda oz qismi musulmonlikni qabul qilib, turklar bilan qorishib ketdi, ko'pchiligi (rumlar) Bolqonga o'tib ketdilar, ko'chmaganlari esa to Turkiya jumhuriyati barpo bo'lgunga qadar o'z yerlarida yashab qoldilar. Bugungi kunda Turkiyada asli armani, suryoniy bo'lgan xristian vatandoshlarimiz yashaydi.

Onado'lin zabt etgan Qutolmish o'g'li Sulaymonshoh bilan uning ba'zi beklari o'rtasida ixtilof chiqadi. Xususan, Ortuqbek u erishgan muvaffaqiyatlarda o'zining katta hissasi bor ekanligini da'vo qilar, Sulaymonshohga hasad qilar edi. Sulaymonshoh bundan buyuk sulton Malikshohni xabardor etadi va Ortuqbekni Onado'lidan uzoqlashtiradi. Ortuqbek usmon qo'shiniga qo'mondon etib tayinlanadi. Keyinchalik Ofshinbek va boshqa ba'zi katta sarkardalar ham Sulaymonshohning qattiqo'lligidan norozi bo'lib, Tutushning yoniga ketdilar. Tutush Malikshohning ukasi bo'lib, Otsizbekdan so'ngra Suriya hokimligiga

tayinlangan. Uning zimmasiga Misrni fath etish vazifasi qo'yilgan edi. Tutush huddi Qutolmish o'g'lidek Suriyada katta davlat qurgan edi. Qutolmish o'g'lining janubga haddan tashqari ilgarilashidan xavfsiragan Tutush bu qo'mondonlar bilan unga qarshi chiqadi. Bu paytlarda Sulaymonshoh Xalabni qamal qilgan edi.

Saljuqiy sulolaning bu ikki atoqli farzandi ikki turk qo'shinining boshida Xalab yaqinida bir-biri bilan to'qnashdilar. Necha yillar davomida birgalikda jihod qilib, islom va turlarning hokimiyatini o'rnatish uchun urushgam bu kishilarning bir-birini g'ajish nihoyatda ko'ngilsiz voqea edi. Sulaymonshoh Tutushning qo'shiniga hujum qildi. Ekin bu qo'shinda Sulaymonshohning taktikasi va Onado'li armiyasini yaxshi bilgan katta sarkardalar bor edi. Tutush safida Ortuqbek qarshu hujumga o'tadi. Ortuqbek butun umrini jang maydonlarida o'tkazgan mohir sarkarda edi. U Sulaymonshohning qo'shinini to'zitib yuboradi. Onado'li turk davlatini barpo etgan bu buyuk qo'mondon va sulton hayotida ilk marotaba yengildi. Sulaymonshoh qochishdan ko'ra o'zini o'ldirishni afzal biladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, saljuqiylar o'rta sharqqa yetib borgan vaqtlarda islom dunyosi tang ahvolda edi. Garchi Bag'doddagi Abbosiy xalifa sunniy islom dunyosining oliy rahbari bo'lsada, abbosiylar imperiyasi bu vaqtga kelib, siyosiy va harbiy

ji hatdan nihoyatda zaiflashib qolgan edi. Xalifa Bag'dod va Eronning bir qimisga hokim bo'lgan shia Buvoyxiylar qo'lida qo'g'irchoq edi. Ular Misrga hokim bo'lgan shia fotimiy xalifalarini din va davlat yo'lboshchisi sifatida tan olishar, lekin yashab turgan joylarida sunniy musulmonlar ko'pchilikni tashkil etgani uchun Bag'dod xalifasini o'rtadan olib tashlashga qo'rqqar edilar. Mahmud G'aznaviy shialarning har bir va siyosiy kuchlarini tor-mor qilgandan keyin sunniy musulmonlikka dushman bo'lgan bir qancha shia guruhlarini yashirin tashkilot sifatida ish ko'rib, har tarafda buzg'unchilik faoliyatini olib borayotgan edi. Xullas, abbosiylar imperiyasiga qarashli musulmon o'lkalarida siyosiy boshboshdoqlik hamda e'tiqod ishonchsizligi hukm surayotgandi. O'rtada ko'zga tashlanadigan shaxs bo'lmagani uchun islom jamoati har xil mazhablaga bo'linib, siyosiy parchalanishga yuz tutayotgan edi.

Saljuqiylar sunniy mazhabida edilar. Abbosiy xalifa iqtidorli qolish va o'z jamoasini shia-botiniy kuchlardan himoya qilish maqsadida sunniy hukumatlar bilan yaqin aloqada bo'lib turdi. Hatto halifa o'zi sulton bo'lsa ham Mahmud G'aznaviy "sulton" deb e'lon qildi. Shu tarzda Mahmud G'aznaviy o'zini tanitish yo'lini topgai kabi xalifa ham kuchli bir himoya ostiga o'tgandi. Xalifa To'g'rulbekni ham "sulton" sifatida e'tirof etardilar.

Saljuqiylar har ikki taraf uchun ham manfaatli bo'lgan bu yaqinlikdan yetarlicha foydalandilar. To'g'rulbek 1055 yilda haj yo'llarining xavfsizligini ta'minlash bahonasida Iroqqa, ya'ni xalifa qo'l ostidagi yerlarga kirib bordi. Abbosiy xalifa Bihrulloh To'g'rulbekni Bag'dodga taklif etib uni "musulmonlarning hukmdori" deb e'lon qildi. Va Bag'dodda juma xutbasini uning nomiga o'qidi. To'g'rulbek katta tantana bilan Bag'dodga kirdi. Bag'dod xalqni ularni shialarning zulmidan qutqargan bu sultonni va uning askarlarini shodu hurramlik bilan kutib oldi. Xalifa sultonning qizi Xadicha Arslon xotunga uylanib, oradagin iplarni qattiqroq bog'ladi.

Xullas Saljuqiylar ham islom olamida ham O'rta Osiyo davlatchiligi tarixida muhim iz qoldirgan davlatlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.istoriya.ru
2. Tarixda turkiy davlatlar, Erol Gungo'r, Toshkent-2003
3. O'zbekiston tarixi, 1987-yil, 1-2 jildlar.

Mavzuga doir testlar:

1. Saljuqiylar davlatini boshqargan To'g'rulbek qaysi qabiladan edi?
 - a. *Turkman*
 - b. O'zbek
 - c. Qarluq
 - d. Saljuq
2. Kimning davrida ko'chmanchi saljuqiylar Zarafshon vodiysini tashlab ketdilar?
 - a. Tutush
 - b. Alitagin
 - c. *Alitaginning o'gillari*
 - d. Xorun

3. Xorazmshoh Xorun ko'chmanchi saljuqiylarga Mashoi, Sho'raxona va Goviyharni berganidan so'ng Jand hokimi ularga hujum qiladi.

Bu jangda saljuqiylardan necha kishi xalok bo'ladi?

- a. 10 000 ming
- b. 9 000 ming
- c. 8 000 ming
- d. 7 000 ming

4. 1038 yilda To'g'rulbek 3 ming kishilik qo'shin bilan qaysi shaharni qarshiliksiz egallaydi?

- a. Jand
- b. Xorazm
- c. *Nishopur*
- d. Saraxs

5. Saljuqiylar davlatining hukmdorlarida biri Alp Arslonxonning o'g'li Malikshoh davlatni boshqarish sirlarini kimdan o'rgandan edi?

- a. Ulug' vazir Ahmaddan
- b. *Vazir Nizommulkdan*
- c. Qo'mondon Otsizdan
- d. A va B

6. Malikshoh ochgan madrasaning nomi?

- a. *Nizomiya*

- b. Mulkiya
- c. Malikiya
- d. Hikmatiya

7. Sulton Sanjar qaysi voqeadan keyin vafot etdi?

- a. Jangdan so'ng
- b. Uzoq muddatli kasallikdan so'ng
- c. *Asirlikdan* ozod qilinganidan so'ng
- d. Suyiqasd oqibatida vafot etgan

8. Arabiston yarim oroli saljuqiylarning qaysi hukmdori davrida davlatga qo'shib oldindi?

- a. Tutush
- b. Sulton Sanjar
- c. *Malikshoh*
- d. Bug'raxon

9. Malikshohning amakisi Kovrut qaysi shahrning hukmdori edi?

- a. Nishopur
- b. Jand
- c. *Kirmon*
- d. To'g'rulbek

10. Bag'dod kimning davrida saljuqiylarning qo'lga o'tdi?

- a. Nishopur

- b. Jand
- c. Kirmon
- d. *To'g'rulbek*

Muammoli savollar:

1. Saljuqiylar davlatida dinning o'rni qanday bo'lgan?
2. Saljuqiylar hukmdorligi davrida O'rta Osiyo aholisining turmush darajasi qanday edi?
3. Saljuqiylarni madaniyat jihatdan rivojlangan deyish mumkinmi?
4. G'aznaviylarning saljuqiylarga yutqazishining asosiy sababi nimada edi?
5. Saljuqiy hukmdorlarning uzoq hukmdorlik qilmaganliklarining sababi nimada?